

## **PEDAGOGIK JARAYONDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI**

**Sulaymonova Zarifaxon Odiljonovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim jarayonida multimedya vositalaridan foydalanishning zamонави стратегиялари юритилган. Multimediya vositalarining o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, faol ishtiroki va mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayoniga mos multimedia kontentini tanlash, moslashtirish va qo‘llashda o‘qituvchidan talab etiladigan pedagogik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada aniq tavsiyalar va amaliy misollar asosida multimedia texnologiyalarining samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar;** multimedia vositalari, interaktiv ta’lim, didaktik strategiya, vizual ta’lim, axborot texnologiyalarini, ta’lim samaradorligi, o‘quv motivatsiyasi

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchining bilim egallashiga passiv emas, balki faol va ongli yondashuvni talab qiladi. Bu esa ta’lim vositalarini yangilash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni zarur qiladi. Multimediya vositalari — ta’lim jarayonini jonlantiruvchi, o‘quvchini bilim manbasiga faol jalb etuvchi, uni motivatsiyalovchi vosita sifatida keng qo‘llanmoqda. Darslarda video, audio, animatsiya, grafik va interaktiv materiallardan foydalanish orqali o‘quvchining eslab qolish qobiliyati, tushunish darajasi, muloqot ko‘nikmalari ortadi. Biroq bu vositalardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchi aniq strategik yondashuvga ega bo‘lishi zarur.

### 1. Multimediya vositalarining pedagogik ahamiyati.

Multimediya vositalari — bu bir vaqtning o‘zida matn, rasm, ovoz, video va animatsiyani uyg‘unlashtirgan axborot texnologiyalarini majmuasidir. Ular yordamida o‘quvchilarga abstrakt tushunchalarni ko‘rgazmali tarzda yetkazish, murakkab jarayonlarni vizual shaklda tushuntirish va bilimlarni mustahkamlash imkoniyatlari kengayadi. Multimediya darsga emotSIONAL tus beradi, shuningdek, turli o‘rganish uslublariga ega o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondira oladi.

### 2. Multimediya vositalaridan samarali foydalanish strategiyalari.

Multimediya vositalarini ta’lim jarayoniga samarali joriy etish uchun quyidagi strategik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

- Maqsadga yo‘naltirilgan tanlov: multimedia vositalari darsning maqsadi va mavzusiga mos bo‘lishi kerak. Har bir video yoki animatsiya o‘quvchilarni mavzuga jalb etib, tushunishga xizmat qilishi lozim

- Didaktik integratsiya: multimedia darsning ajralmas qismi bo‘lishi, ya’ni shunchaki ko‘rgazmali vosita emas, balki ta’lim mazmunining bir bo‘lagi sifatida ishlatalishi kerak

– Interaktivlikni ta’minlash: faqat tinglash yoki tomosha qilish emas, balki o‘quvchini ishtirok etishga, fikr bildirishga, savolga javob berishga undovchi shakllar samaraliroq bo‘ladi

– Bosqichma-bosqich qo‘llash: dars davomida multimedia vositalaridan ortiqcha va uzlusiz foydalanish o‘quvchida charchoq yoki diqqatning susayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun uni aniq bosqichlarga moslab, qisqa va samarali qilib tanlash kerak

– Refleksiya asosida tahlil qilish: multimedia materiallaridan so‘ng savollar, muhokama va baholash orqali o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirish mumkin

### 3. O‘qituvchining roli va kompetensiyasi.

Multimedia vositalaridan samarali foydalanish o‘qituvchidan bir qancha ko‘nikmalarni talab qiladi. Eng avvalo, u texnologiyalardan xabardor bo‘lishi, mavjud platformalar (masalan, PowerPoint, Canva, Quizizz, Nearpod, YouTube) orqali kerakli materiallarni yaratish yoki topa olish malakasiga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, u o‘quvchilarning qiziqishini va ehtiyojlarini hisobga olib, dars mazmuniga mos materiallarni tanlay olishi, ularni darsda didaktik jihatdan to‘g‘ri joylashtirishi kerak.

### 4. Multimediya vositalarining ta’siri va afzalliklari.

– O‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish kuchayadi

– Matnli axborotni tushunish va yodda saqlash osonlashadi

– Murakkab tushunchalar vizual asosda tezroq o‘zlashtiriladi

– Faollik va muloqot kuchayadi, o‘zaro o‘rganish tezlashadi

– Ijodkorlik, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga yondashish ko‘nikmalari shakllanadi

Shu bilan birga, multimedia darsning emotsional fonini kuchaytiradi, bu esa o‘quv muhitining ijobiy bo‘lishiga xizmat qiladi.

Multimediya vositalaridan foydalanish zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular o‘qituvchiga nafaqat mavzuni qiziqarli tarzda yetkazish, balki o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos yondashish imkonini ham beradi. Ammo bu vositalar o‘z-o‘zidan samaradorlikka olib kelmaydi — ularni maqsadga yo‘naltirilgan, puxta o‘ylangan va metodik asoslangan holda qo‘llash zarur. Shunda multimediya texnologiyalari ta’lim sifati va samaradorligining muhim omiliga aylanadi. O‘qituvchining texnologik savodxonligi va pedagogik strategiyasi bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob.- Toshkent: Ilm-Ziyo, 2012-y.

2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun). - TDPU, 2013-y.